

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

Rahmonova Halima Abdug'aniyevna

Kosonsoy tumani 44-sonli maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugungi kunda davlat va jamiyat uchun muhim bo'lgan dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini yuksaltirish alohida o'rin tutadi. Zero, barkamol avlodni tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish ta'lim jarayonining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashda ilg'or tajribalarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlarida munosib ishtirok etish hamda ularning natijalaridan kelib chiqib ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlari boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi hamda olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. PIRLS – 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlaydi.
2. TIMSS – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika hamda tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydi.
3. TALIS – umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'qituvchi va rahbarlar faoliyatini, ta'lim jarayonining samaradorligini so'rovnomalar orqali o'rganadi. Bu dasturda o'qituvchilar ishtirok etishlari mumkin.

Xalqaro baholash dasturlari natijalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga ta'lim jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, xalqaro baholash dasturlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish, interfaol usullarni tatbiq etish, shuningdek, mustaqil hamda kritik fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'qituvchi darslarni faqatgina bilim berish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarda muammoni tahlil qilish, kundalik vaziyatlarda qo'llash, jamoada ishlash hamda kreativ yondashuv kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratadi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilari xalqaro talablar darajasidagi kompetensiyalarga ega bo'lib boradi, ta'lim jarayoni esa yanada samarali va mazmunli bo'lishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik davomida darslarni

integratsiya qilish, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi. Ularni tahlil qilish orqali o'quvchilarning kuchli va sust jihatlarini aniqlash hamda ularga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Natijada dars samaradorligi yanada oshadi, individual yondashuv ortadi va o'quvchilarning bilim darajasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi.

Bundan tashqari, xalqaro baholash dasturlarining ta'lim sifatini oshirishdagi bir qator afzalliklarini ko'rish mumkin:

- ☐ o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatini baholab, uni yanada takomillashtirish imkoniga ega bo'ladi;
- ☐ dars jarayonida interfaol metodlar, turli muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlardan kengroq foydalanish imkoniyatini beradi;
- ☐ ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi;
- ☐ ta'lim sifatini global darajada baholash – o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari xalqaro standartlarga solishtiriladi;
- ☐ kuchli va zaif tomonlarni aniqlash – natijalar asosida ta'lim tizimidagi yutuqlar hamda mavjud kamchiliklar ko'rsatib beriladi;
- ☐ o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish – pedagoglarga dars jarayonini zamonaviy metodlar bilan tashkil etish hamda yangi yondashuvlarni qo'llash imkonini yaratadi;
- ☐ mustaqil va kritik fikrlashni shakllantirish – o'quvchilar bilimni amaliyotda qo'llash, muammolarni yechish va kritik fikrlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar;
- ☐ innovatsion ta'limga yo'naltirish – interfaol metodlar, fanlararo integratsiya va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi;
- ☐ xorijiy tajribadan foydalanish – ilg'or mamlakatlar ta'lim yutuqlarini amaldagi tizimga joriy qilish imkoniyatini beradi;
- ☐ motivatsiyani kuchaytirish – ijodiy topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning darslarga qiziqishi yanada ortadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, PISA, TIMSS) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalari xalqaro mezonlar asosida baholanadi. Natijada, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish kelajak avlodni intellektual salohiyatli hamda xalqaro maydonda faol ishtirok etishga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009
3. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247.
4. Юсупова Г., & Сабурова С. (2022). Xalqaro baholash dasturlari (pisa, timss, pirls) va ularni amalda qo'llay olish. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 302, 306. Извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5613>